

IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIKNING ROLINI OSHIRISH YO'NALISHLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10673008>

Olimova Nodira Xamrakulovna

i.f.n.,prof.,

Jumaboyev Dilmurod Abdufatto o'g'li

magistrant

Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mohiyati, iqtisodiyotni barqaror rivojlanishida tadbirkorlikning tutgan o'rni o'rganilgan, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishi holati tahlil qilingan, biznes va tadbirkorlik sub'yektlari eksport faoliyatini rag'batlantirishning ustuvor yo'nalishlari kabi masalalar tadqiq etilgan va bu borada amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar

Iqtisodiyot, biznes, tadbirkorlik, rivojlanish, ishbilarmonlik muhiti, harakatlar strategiyasi, taraqqiyot strategiyasi, rivojlanish dasturlari.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi va mazkur sektorni davlat tomonidan tartibga solinishi yanada faollashib bormoqda. Mamlakatdagi ishbilarmonlik muhitining tobora kengayishi kichik biznes sub'yektlarining rag'bat asosidagi faoliyatini ta'minlashga olib kelmoqdaki, deyarli barcha tarmoqlardagi kichik biznes sub'yektlari yildan-yilga miqdor jihatidan ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi farmonida ham jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda "Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan. Xususan keng jamoatchilik muhokamasi natijasida "Inson qadri

uchun" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo'nalishdan iborat Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi va uni 2022 yilda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" ishlab chiqildi [3]. Ushbu taraqqiyot strategiyasining uchinchi yo'nalishida hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalar doirasida hududlar bilan ishlashning yangi tartibi o'rnatiladi. Bunda, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha dasturlar asosida har yili barcha tuman va shaharning muammo va imkoniyatlarini chuqur o'rgangan holda hududlar kesimida taraqqiyot dasturlari ishlab chiqiladi hamda har chorak yakuni bo'yicha, viloyat hokimlari hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlaridagi vazifalarning bajarilishi yuzasidan xalq deputatlari Kengashlariga hisobot berishlari belgilab qo'yildi. Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy sohani isloh qilish va ustuvor tarmoqlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan muhim loyihalar barcha hududlarning talablari va mahalliy tashabbuskorlarning takliflarini inobatga olgan holda mahalliy jamoatchilik ishtirokida keng muhokama qilinganidan keyin qabul qilinishi belgilab qo'yildi [5].

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri - tadbirkorlik muhitini takomillashtirishni qo'llab-quvvatlash va uni samarali tashkil etishni ta'minlashdan iborat.

Ma'lumki, tadbirkorlik quyidagi tamoyillarga tayanadi: bozor talabiga ko'ra mustaqil iqtisodiy faoliyat olib borish; foyda olishdan iborat maqsadga ega bo'lish; iqtisodiy mas'uliyat va majburiyatni o'z zimmasiga olib, tavakkaliga ish qila bilish; yangilikka intilish; belgilangan qonun-qoidalarga rioya qilish; tadbirkorlik sirini saqlash; ijtimoiy mas'uliyatni his etish, ya'ni o'z jamoasi, xalqi farovonligini ta'minlashni o'z faoliyatining asosiy yo'nalishi deb bilish va boshqalar [7].

Tashkiliy jihatdan tadbirkorlik jismoniy va yuridik shaxslar faoliyatidan iborat. Tadbirkorlik biznes sifatida, asosan, sanoat, agrar va servis sohalarda kechadi. Tadbirkorlik mulkiy jihatdan 4 xil ko'rinishga ega: davlat tadbirkorligi; xususiy tadbirkorlik; jamoa tadbirkorligi; aralash tadbirkorlik.

Hozirda hududiy iqtisodiy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solish nazariyalari mamlakatimiz amaliyotida keng qo'llanilmoqda. Bu borada iqtisodchi olimlarimizdan I.O.Yakubov va boshqalarning "Mintaqaviy iqtisodiyot" darsligida hududlar rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

- hududda bandlikning bir-birligiga to'g'ri keladigan mehnat unumdorligi;
- mehnatning fond qaytimi va ta'minlanganligi;
- asosiy fondlar rentabelligi (yalpi daromad va YaHM bo'yicha);
- solishtirma investitsiyalar (tovar ishlab chiqarish va xizmatlar birligiga);

- o'rtacha ish haqi; hudud aholi sonidagi bandlik hissasi;
- YaHMagi soliq va soliqsiz ustamalar hissasi (soliq yuki);
- mahalliy byudjet daromadlarining respublika byudjetidan ajratmalari hissasi;
- bir yashovchi hisobida mahalliy byudjetning o'z daromadlari va boshqalar” [4].

Jahonda rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning 55-67 foizi kichik biznes korxonalarini hissasiga to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich AQShda 52-55 foizni, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida 63-67 foizni, Yaponiyada 52-57 foizni tashkil etadi. MDH mamlakatlarida esa kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi rivojlangan mamlakatlarga nisbatan past ko'rsatkichni tashkil etmoqda. G'arbiy Yevropa mamlakatlarida xususiy sektorda faoliyat yuritayotgan (qishloq xo'jaligi tarmog'idan tashqari) 17,1 mln. korxonalarining 99,9 foizi kichik biznes korxonalarini hisoblanadi. Ularning hissasiga umumiy sanoat hajmining 50 foizi, xizmatlar sohasining 67 foizi, qurilish va savdoning deyarli 90 foizi to'g'ri kelib, ish joylarining 70 foizdan ortig'ini ta'minlamoqda.

Milliy iqtisodiyotimizda xususiy tadbirkorlik ulushining ortib borayotgani ichki bozorni raqobatbardosh va sifatli tovarlar bilan to'ldirish, zamon talablarini inobatga olgan holda xizmatlar ko'rsatish sohasini kengaytirish, eksport tarkibida jahon bozorlarida xaridorgir, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlarni ko'paytirish, avvalo yoshlar uchun yangi ish o'rinlarini yaratish va shu asosda aholi daromadi hamda farovonligini oshirishning muhim omillaridan biri bo'ldi [6].

Bugungi kunda mamlakatimizda ish bilan band bo'lgan jami aholining 80% ko'prog'i xususiy tadbirkorlik sohasida mehnat qilmoqda. Mavjud barcha xo'jalik sub'yektlarining 90 foizidan ortig'ini biznes korxonalarini tashkil etadi.

1-jadval

Respublikamizda jami aholining bandlik darajasi bo'yicha ma'lumot [15], foizda

Hududlar	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
O'zbekiston Respublikasi	66.6	67.1	67.7	68.2	68.7	69.2	67.4	68.1	66.0	67.0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	57.4	57.7	57.9	58.1	58.1	58.3	62.9	62.9	62.0	61.1
Andijon	69.0	69.9	70.8	71.5	72.3	73.0	69.6	70.1	66.5	68.2
Buxoro	74.1	74.4	74.0	73.4	72.9	72.5	70.7	69.3	68.3	67.2
Jizzax	56.0	56.5	57.3	58.1	59.1	60.0	61.6	67.1	66.2	67.5
Qashqadaryo	61.2	61.8	62.5	63.3	64.3	65.4	64.8	63.9	60.9	62.2

Navoiy	74.7	74.1	73.6	73.2	72.8	72.4	69.2	69.5	66.8	68.3
Namangan	57.2	58.1	59.3	60.5	61.9	63.4	63.8	66.4	65.0	65.5
Samarqand	64.7	65.4	66.5	67.6	68.7	69.7	66.3	65.3	63.2	63.7
Surxondaryo	62.3	62.7	63.4	64.3	65.4	66.6	65.2	67.0	63.9	64.5
Sirdaryo	72.2	72.5	72.9	72.2	71.7	71.1	70.5	68.9	64.8	64.5
Toshkent	72.9	74.0	75.1	75.3	75.4	75.2	71.4	71.4	68.2	72.4
Farg'ona	68.0	68.3	68.8	69.1	69.6	69.9	66.0	67.5	65.1	66.2
Xorazm	63.9	64.3	65.0	65.6	66.3	66.9	64.6	66.1	63.7	64.0
Toshkent sh.	80.7	80.7	80.9	81.1	81.0	80.8	77.5	80.1	81.7	81.3

Hozirgi kunda yalpi ichki mahsulotning 53,9% yaqini, ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 27,5% va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 97,0% aynan shu soha - xususiy tadbirkorlik hissasiga to'g'ri kelmoqda. Taqqoslaydigan bo'lsak, umumiy bandlikda kichik biznesning ulushi AQShda 54%, Buyuk Britaniyada 56%, Germaniyada 69,5%, Italiyada esa 71 %ni tashkil qiladi. Kichik biznes sohasida bandlikning ortishi kam ta'minlagan aholi darajasini qisqartirishda muhim omil sanaladi [8]. Yangidan tashkil etilayotgan kichik biznes sub'yektlarining barqaror o'sishi, qulay biznes-muhitning barpo etilishi, yagona soliq to'lovlari bo'yicha soliq stavkalarining pasaytirilishi, ishlab chiqarish infratuzilmasi va resurslarga erishish shartlarining soddalashtirilishi va, shuningdek, yirik kompaniyalar bilan kichik biznes sub'yektlari o'rtasida kooperatsion aloqalarning rivojlanishi evaziga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi sezilarli darajada ko'tarildi (2-jadval).

2-jadval

O'zbekiston makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tizimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi [16], (umumiy hajmga nisbatan foizda)

Ko'rsatlar	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
YaIM	61.9	60.8	60.9	61.9	64.6	66.8	65.3	62.4	56.0	55.7	54.9	51.8
Sanoat	28.6	29.7	33.0	36.8	40.6	45.3	41.2	37.4	25.8	27.9	27.0	25.9
Qurilish	67.6	70.0	70.6	69.5	66.7	66.9	64.8	73.2	75.8	72.5	72.4	71.6
Bandlik	75.1	75.6	76.7	77.6	77.9	78.2	78.0	76.3	76.2	74.5	74.4	-
Ekspart	18.8	14.0	26.2	27.0	27.0	26.0	22.0	27.2	27.0	20.5	22.3	29.5
Import	34.3	38.6	42.4	45.4	44.5	46.8	53.6	56.2	61.6	51.7	48.7	49.4

Kichik biznes sektorining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi ko'p jihatdan tarkibiy islohotlarning muvaffaqiyatini belgilab berdi. Harkatlar strategiyasida xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo'lidagi barcha to'siq va cheklovlarni bartaraf

etish, unga to'liq erkinlik berish, "Agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi", - degan tamoyilni amalga oshirish borasidagi tadbirlarga alohida e'tibor qaratilgan [2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 14 yanvardagi «2021 yilda O'zbekiston Respublikasining eksport salohiyatini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4949-son qarori qabul qilindi [14]. Unga asosan 2021 yildan respublika eksport salohiyatini tiklash va yanada kengaytirish maqsadida doimiy faoliyat yurituvchi hududiy eksport shtablari tashkil etildi. Ular Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining hududiy bo'linmalarida joylashtirildi. Eksport va investitsiyalarni rivojlantirish masalalari bo'yicha Hukumat komissiyasiga o'n kun muddatda «ishlab chiqarishdan to xorijiy iste'molchiga» tamoyili bo'yicha eksportchi tashkilotlarga ko'maklashishda aloqador vazirliklar, idoralar, tijorat banklari va mahalliy davlat boshqaruvi organlarining «gorizontal va vertikal o'zaro hamkorlikda ishlash» mexanizmini nazarda tutgan holda hududiy eksport shtablarining to'laqonli faoliyat yuritishini ta'minlash topshirildi [9].

2021 yil 1 apreldan mahalliy eksportchi korxonalarining savdo uylarini ochish va saqlash, ofis, savdo va ombor binolarini ijaraga olish, shuningdek reklama kampaniyalarini tashkil qilish bilan bog'liq chet eldagi xarajatlarining 50%i Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag'batlantirish agentligi mablag'lari hisobidan qoplab berila boshladi. Hujjat bilan 2021 yilda Eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasidan eksportchi tashkilotlarga xom ashyo sotib olish va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun 100 mln. AQSh dollari ajratilishi nazarda tutilganligi ma'lumot uchun qabul qilindi [10]. Shu munosabat bilan Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligiga 2021 yil 1 fevraldan eksportchi tashkilotlarga eksportoldi moliyalashtirish ajratilishini ta'minlash topshirildi. Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining yanada rivojlanishi va kengayishiga, iqtisodiyotdagi ishbilarmonlik muhitining mustahkamlanishiga imkon yaratadi (1-rasm).



1-rasm. Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2018-2022 yillar davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni [17], ming birlik

Soʻnggi yillarda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subʼyektlarini qoʻllab-quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash boʻyicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta eʼtibor natijasida 2018-2022 yillar davomida jami 424 073 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng koʻp yangi subʼyektlar savdo sohasida - 156069 (yoki 36,8 %) ta, xizmatlar sohasida - 99198 (yoki 23,4 %) ta, sanoat sohasida - 84830 ta (yoki 20,0 %), qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida - 51752 ta (yoki 12,2 %) va qurilish sohasida - 32224 (yoki 7,6 %) ta tashkil etilgan.

Tahlililar shuni koʻrsatmoqdaki, soʻnggi uch yilda barcha sohada yangi turdagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etilmoqda. Jumladan, soʻnggi 3 yilda eng koʻp savdo sohasining ixtisoslashgan doʻkonlarda boshqa tovarlar chakana savdosi yoʻnalishida 29728 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etilgan boʻlib, bu esa savdo sohasida oxirgi 3 yilda tashkil etilgan korxonalarining 27,5 % ini tashkil etmoqda [11]. Bundan tashqari soʻnggi yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar hamda kichik tadbirkorlik subʼyektlariga berilayotgan imkoniyat va preferentsiyalar natijasida, xizmatlar sohasining ovqatlanishni tashkil etish, avtomobil transporti xizmatlari va taʼlim yoʻnalishlarida ham koʻplab kichik korxonalar va mikrofirmalar ochilayotganligini koʻrishimiz mumkin.

Shuningdek, sanoat sohasida soʻnggi yillarda asosan qandolatchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish, mebel ishlab chiqarish, deraza hamda eshik-romlarini ishlab chiqarish keng yoʻlga qoʻyilgan boʻlsa, qurilish sohasida esa koʻproq yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar, turar-joylarni qurilishi, qurilish loyihalash ishlari hamda boshqa toifalarga kiritilmagan qurilish-montaj yoʻnalishlarida koʻproq tashkil etilmoqda.

Maʼlumki, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish - mamlakatimizda iqtisodiy oʻsishni taʼminlash, yangi ish oʻrinlarini yaratish, bandlik muammosini hal etish, aholining real daromadlari va farovonligini oshirishda muhim omil sifatida qaralmoqda [12].

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 apreldagi PF-101-sonli "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy oʻsish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi

navbatdagi islohotlar to'g'risida"gi Farmoni [1] ga asosan 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish, shuningdek, inklyuziv va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish orqali kambag'allikni ikki barobarga qisqartirish, iqtisodiyotda raqobatni ta'minlash, tadbirkorlik sub'yektlariga teng sharoitlar yaratish, bozor munosabatlariga to'laqonli o'tishni jadallashtirish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, xususiy investitsiyalar hajmini keskin oshirish hamda biznes doiralarning ishonchini yanada mustahkamlash borasida xususiy sektorning rolini oshirish, barcha tarmoq va sohalarda xususiy sektorning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida quyidagi yo'nalishlarda asosiy ishlarni olib borish lozim:

- xususiy mulk daxlsizligi va tadbirkorlik faoliyati erkinligini kafolatlash borasidagi institutsional va ma'muriy islohotlarni davom ettirish hamda bu borada qonun ustuvorligini ta'minlash;

- qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini shaffof tarzda xususiylashtirish mexanizmlaridan, eng avvalo, xususiy investorlarni jalb qilishning muhim omili sifatida foydalanish hamda yerlarni auktsionga chiqarishda ularning jozibadorligini oshirish uchun infratuzilma va boshqa zaruriy sharoitlarni yaratib berish;

- davlat ishtiroki saqlanib qolayotgan tovar va xizmatlar bozorini erkinlashtirish hamda ushbu sohalarga xususiy sektorning kirib kelishi uchun sharoit yaratish, monopoliyaga qarshi organning institutsional salohiyati va vakolatini kuchaytirish orqali sog'lom raqobat muhitini shakllantirish;

- «tartibga soluvchi gilyotina» usulini manzilli qo'llash orqali imtiyozlar, eksklyuziv huquq va ustunliklarni bekor qilish;

- davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarini transformatsiya qilish hamda xususiylashtirishni jadallashtirish, iqtisodiyotda samarasiz ishlayotgan korxonalar ulushini kamaytirish hisobiga sifat jihatidan yangi, xususan, ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillariga asoslangan investitsiyalar va ishlab chiqarish unumdorligi yuqori bo'lgan texnologiyalarning ko'payishini rag'batlantirish;

- pul va kapital bozorlarini yanada erkinlashtirish hisobiga moliya bozoridagi turli segmentlarning rivojlanishiga turtki berish, shu orqali xususiylashtirilgan va transformatsiya jarayonidagi korxonalarga o'z faoliyatini moliyalashtirishning muqobil manbalarini shakllantirishga sharoit yaratish;

- iqtisodiyotning drayver tarmoqlari, xususan, tog'-kon, neft-gaz, kimyo, qurilish materiallari sanoati va boshqa sohalarni kafolatlangan xom ashyo bazasi bilan ta'minlash uchun geologiya-qidiruv ishlariga, qazib chiqarish va qayta ishlash

jarayoniga xorijiy investorlarni jalb qilishni jadallashtirish, mineral xom ashyo bazasi zaxiralarini ko'paytirishni qo'llab-quvvatlash;

- energiya resurslari, transport va kommunikatsiya bozorlarini rivojlantirish va sohaga xususiy investitsiyalar kirib kelishi uchun sharoitlar yaratish;

- ichimlik va oqava suv ta'minoti, issiqlik ta'minoti, obodonlashtirish, yo'l qurilishi, aviatsiya infratuzilmasi sohalarida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini keskin ko'paytirish;

- barcha soha va tarmoqlarda korrupsiya holatlarining har qanday ko'rinishiga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish va unga qarshi ayovsiz kurashish;

- davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarida korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini, shu jumladan «komplayens» nazorat tizimini keng joriy etish, xaridlar tizimi shaffofligini ta'minlash orqali korrupsiyaning oldini olish eng asosiy ustuvor vazifalar sanaladi.

Davlatimiz rahbari 2023 yil uchun Murojaatnomasida o'tgan yil yakunlarini sarhisob qilib, kelgusida rivojlanishning asosiy 6 yo'nalishini belgilab berdi. Ulardan 6-yo'nalishda "Iqtisodiyotga mahalliy va xorijiy xususiy investitsiyalarni ko'paytirish uchun sharoitlarni yanada yaxshilash" masalalari belgilab o'tilgan.

"...Navbatdagi masala - 2023 yilda tayyor mahsulotlar eksportini qo'shimcha 4 milliard dollarga oshirish asosiy maqsadimiz bo'ladi. Bu yil boshlangan "Yangi O'zbekiston - raqobatbardosh mahsulotlar yurti" dasturi o'z samarasini bermoqda. Bir yilning o'zida 2 mingga yaqin tadbirkorlar ilk bor tashqi bozorlarga chiqdi.

Kelgusi yilda ham eksport qiluvchilarga transport va boshqa xarajatlarini kompensatsiya qilish davom ettiriladi. Yevropa bozorlariga tekstil, elektr texnikasi, charm-poyabzal va boshqa tayyor mahsulotlar eksportini kamida 2 barobar oshiramiz. Mahsulotlar eksporti bo'yicha hozirgi 9 ta bosqichdan iborat bojxona rasmiylashtiruvi 3 barobar qisqaradi [13]".

O'zbekistonda tadbirkorlikni har tomonlama takomillashtirish va qo'llab-quvvatlash, ularning ichki va tashqi bozorda raqobatlasha oladigan, sifatli mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni izchil yo'lga qo'ya oladigan mustahkam iqtisodiy sohaga aylanishini ta'minlash ko'zda tutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Тadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi

навбатдаги ислохотлар тўғрисида. 08.04.2022 йил, ПФ-101-сон,
<https://lex.uz/ru/docs/5947775>

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to'g'risida. 17.01.2019 yil, PF-5635-son,
<https://lex.uz/docs/4168749>.

14. https://uza.uz/ru/posts/2022-2026-yillarga-molzhallangan-yangi-ozbekistonning-taraqqiyot-strategiyasi-togrisida_342150?q=%2Fposts%2F2022-2026-yillarga-molzhallangan-yangi-ozbekistonning-taraqqiyot-strategiyasi-togrisida_342150

15. Якубов И.О. ва б. “Минтақавий иқтисодиёт”. Дарслик. Toshkent, TDIU, 2019 у.

16. Олимова, Н. Х. (2021). Анализ развития и факторов конкурентоспособности промышленных предприятий региона. *Cognitio rerum*, (7), 32-35.

17. Олимова, Н. Х., & Каримов, Ш. Х. (2020). Реал сектор корхоналарида инновацион янгиликларни жорий қилишнинг ташкилий иқтисодий механизми такомиллаштириш. In *Минтақа иқтисодиётини инвестициялашнинг молиявий-ҳуқуқий ва инновацион жиҳатлари* (pp. 423-427).

18. Akhunova, O. E., Kh, O. N., & Kh, E. A. (2019). Role of innovative technologies in ensuring competitiveness of export products in Uzbekistan. *Process management and scientific developments*.

19. Олимова, Н. Х., & Юлдашев, Д. Т. (2016). The role of small business and private entrepreneurship in the economic activities. *Молодой ученый*, (9), 682-683.

20. Olimova, N. X., & Djuraboyeva, D. M. (2023). Korxonalar ishlab chiqarishini rivojlantirishning yangi manbalari va zahiralardan foydalanish imkoniyatlari va ularni boshqarish. *Ijodkor O'qituvchi*, 3(32), 40-47.

21. Олимова, Н., & Алиқулов, Б. (2023). Оилавий тадбиркорлик салоҳиятидан фойдаланиш зарурияти ва йўллари. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(5 Part 3), 154-158.

22. Олимова, Н. Х., & Аминжонова, В. М. (2023). Тадбиркорлик фаолияти ривожлантиришнинг назарий-услубий асослари. *Scientific progress*, 4(4), 335-341.

23. Олимова, Н. Х., & ўгли Абдухалилов, Н. Х. (2023). Бизнесни юритишда кооперацион алоқаларини моделлаштиришни ривожлантиришнинг истиқболли йўналишлари. *Results of National Scientific Research International Journal*, 2(5), 181-192.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2023 yil uchun Murojaatnomasi (+to'liq matn) 22.12.2022 17:18, <https://president.uz/uz/lists/view/5774>

14. Hududiy eksport shtablari tashkil etiladi. <https://chamber.uz/uzk/news/7203>

15. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2>

16. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>

17. Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги статистика агентлиги. 2022 йил январь-декабрь, Тошкент-2023.